

**YUQORI SINIF O‘QUVCHILARIDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA XALQ OG‘ZAKI IJODNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Zulunova Gulchexra Maxmudovna  
Jalaquduq tumanida 62- DIUMning  
Ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi**

**Annotatsiya:** Maqolada milliy qadriyatlar yuqori sinf o‘quvchilarda qadriyatli munosabatni shakllantirishda va bu borada xalq maqollaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan

**Kalit so‘zlar:** millat, qadriyat, milliylik, xalq, ta’lim, ma’naviy-ahloqiy tarbiya, maqol.

Ma’lumki, hozirgi kunda milliy qadriyatlarga bo‘lgan e’tibor va uni asrab avaylash har bir xalq uchun, jumladan o‘zbek xalqimiz uchun ham muhim ahamiyatga ega. Chunki o‘z o‘tmishini anglamay turib kelajakni barpo etish mushkul ish ekanligi aniq bilamiz. Haqiqatdan milliylik bir millatning butun o‘tmishi, turmush tarzi, umuman olganda bir millatning tub mohiyatini o‘zida aks ettiradi. Xaqiqatan ham milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirishda eng yaxshi vositalardan biri bu shubhasiz xalq og‘zaki ijodidir. Chunki, aynan xalq og‘zaki ijodi namunalarida har bir xalqning o‘tmishni korishimiz mumkin. Xalq og‘zaki ijodi namunalari sifatida qo‘shiq, maqol, matal, topishmoq, afsona, rivoyat, asotir, ertak, latifa, lof, lapar, termalar, doston, askiya, tez aytish, alla, yor-yorlar, kelin salom kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan biri bo‘lgan “maqol”ning ta’lim-tarbiya jarayonida ayniqsa yuqori sinf o‘quvchilarida milliy qadriyatlarni shakllantirishdagi ahamiyati juda kattadir. Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil bo‘lib, ular vatan, mehnatsevarlik, ilm-hunar o‘rganish, do‘stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, sevgi va muhabbat kabi mavzularda bo‘ladi. Shuningdek, maqollar insonlarda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan salbiy va ijobiy xususiyatlarni ham o‘zida aks ettiradi.

Yuqori sinf o‘quvchilarini milliy ruhda tarbiyalashda maqollar ham o‘ziga xos xususiyatga egadir. Masalan, Vatan haqidagi maqollarda o‘zbek xalqining ona vataniga bo‘lgan cheksiz muhabbati, sadoqati, hurmati o‘z ifodasini topgan. Ularda Vatan - ona-yurt tariflanadi, har kim o‘z yurtida yashashi va unin gtoza havosidan erkin nafas olishi, izzat-hurmatda yashashi ko‘rsatilib, vatanni sevish, unga hamisha sodiq bo‘lish kerakligi uqtiriladi. “Bulbul chamanni sevar, odam- Vatanni”. Mazkur maqolda inson ruhiy olamida Vatan tushunchasining ahamiyati qayd etilgan. Bulbul chamanda qanchalar yayrasa, inson o‘z vatanida o‘zini shunchalar erkin his qiladi. Bulbulni bog‘larsiz, gulzorsiz, chamansiz tasavvur etib bo‘lmaganidek, odamni o‘z ona diyorisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Quyidagi maqolda ham Vatan haqida, uning tinchligi va farovonligi haqida so‘z boradi. Ya’ni: “Ona yurtning omon bo‘lsa, rangi-ro‘ying somon bo‘lmas”. Bu maqolda shaxsning ona yurtida yashashi va istiqomat qilishi undan ma’lum burchni ham talab qilishi ifodalangan. Agar yurt omon bo‘lsa, ya’ni tinch bo‘lsa, erkin-ozod bo‘lsagina inson o‘z Vatanida xotirjam yashashi mumkin. Yurt tinchligi, erkinligi, ozodligi, o‘z yurtiga bo‘lgan ishonchi, faxr va iftixori, g‘ururi, o‘zga xalqlar oldida qaddini tik tutishi bilan bog‘liqdir.

Bulardan tashqari, mehnat qilish va mehnatsevarlik xususiyatlarini o‘zida aks ettirgan maqollarimiz ham yuqori sinf o‘quvchilar bilan mehnat tarbiyasini olib borish jarayoniga ijobiy ta’sir etadi. Xalqimiz azal-azaldan mehnatsevar xalq bo‘lgan. Asrlar osha xalq orasida mehnatsevarlik hislatlari qadrlanib bizgacha mehnat, mehnatsevarlik tushunchalari maqollar orqali ham yetib kelgan. Misol uchun: “Ish ishtaha ochar, dangasa

ishdan qochar” maqolini olaylik. Bu maqolda. inson mehnat qilsa uning rohatini ko‘rishi qolaversa mehnat qilgan kishi haqli ravishda ishtaha bilan ovqatlanishi, chin ma’noda haqli ekanligini his etishidir. Ish yoqmas va o‘zini mehnatdan olib qochadigan inson esa mehnat qilmasa rohat ko‘rmasligi, oxir oqibatda ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelishligini o‘quvchilar ongiga singdirishimiz mumkin. Bu borada xalqimiz tamonidan bir qancha maqollar mavjud. Odob-axloq haqidagi maqollar ham alohida o‘ringa egadir. Ular bolalar ongida odob-axloq qoidalarini shakllantirish va milliy qadriyatlarimizga xos tarzda tarbiyalashga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, xalq maqollarining mazmun ko‘lami inson hayotining turli sohalarini qamrab oladi. Zero, yuqori sinf o‘quvchilarini barkamol shaxs qilib voyaga yetkazishda, milliy qadriyatlarimizni singdirishda, odobli bo‘lishida, umuman olganda insonparvarlik va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirib, milliy istiqbolimiz yo‘lida fidokorona mehnat qilib, komil inson bo‘lib voyaga yetkazishda xalq maqollaridan foydalanish ijobiy ta’sir etadi.

Yuqori sinf o‘quvchilarida milliy qadriyatlarni shakllantirishda xalq og‘zaki ijodining namunalaridan biri bo‘lgan xalq maqollari yoshlarimizga milliy qadriyatlarimizni shakllantirishda muhim jihatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Xalq maqollari yuqori sinf o‘quvchilarida butun insoniyat tomonidan qadrlanuvchi quyidagi axloqiy sifatlarni shakllantirishga imkon beradi: milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, diniy qadriyatlar, vatanparvarlik, do‘stlik, odob-axloq, ahillik, mehnatsevarlik, kasb-hunarga muhabbat, yaxshilik va yomonlikning oqibati, halollik, to‘g‘rilik, olijanoblik, adolatlilik, insof, botirlik, saxiylik, baxillik, kamtarlik, sabr-qanoat, muhabbat, or-nomus, samimiylik, andisha, farosat, isrof, me‘yor va me‘yorsizlik, ma’suliyat, kattaga hurmat, urf-odat, an’analarga sodiqlik kabi ko‘plab xususiyatlarni shakllantiradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, xalq maqollari yuqori sinf o‘quvchilarida milliy qadriyatlarimizni shakllantirishda ta’limiy-tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan ta’lim-tarbiya jarayonida xalq maqollaridan o‘rinli va maqsadli ravishda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Zero xalq maqollari o‘zida kelayotgan yosh avlodda milliy qadriyatlarni yanada shakllantirishda o‘ziga xos xususiyatga egadir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Maxmudov Y.F. Xudoyqulov X.J. “Milliy g‘urur-ma’naviy komillik mezoni”. T. Dizayn-Press. 2011. 327 b
2. Xamraqulova SH. Tulishov. “Oila-ijtimoiy ekologik tarbiya sub’ekti.” 291-296.
3. Xudoyqulov X. J. Xolov X.J. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”. O‘quv qo‘llanma. – T. “Innovatsiya-Ziyo”, 2020. - 308 b.